XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 20-iyul VII-38-91-10-0-K/26 Toshkent viloyati

Ugom daryosini “Davlat gidrologik tabiat yodgorligi” deb e’lon qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrdagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi 710-II-sonli qonunining VI bob, 27-moddasida tabiiy obyektlar maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qarorlari bilan “Davlat tabiat yodgorliklari” deb e’lon qilinshi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-maydagi “Ugom daryosining tabiiy gidrologik rejimi va biologik xilma-xilligini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 164-sonli qarorida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi va Toshkent viloyati hokimligining Ugom daryosini “Davlat gidrologik tabiat yodgorligi” deb e’lon qilish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilgan.

Toshkent viloyati hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudovning 2026-yil 8-iyundagi 6-3-2901-sonli xati Xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 12-iyundagi yig‘ilishida muhokama qilinib, qaror loyihasi o‘rnatilgan tartibda regulation.gov.uz portaliga joylashtirilgan.

Doimiy komissiyaning yig‘ilish bayoni va xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari viloyat Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrdagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi 710-II-sonli qonunining VI-bob, 27-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-maydagi “Ugom daryosining tabiiy gidrologik rejimi va biologik xilma-xilligini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 164-sonli qarori ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-maydagi “Ugom daryosining tabiiy gidrologik rejimi va biologik xilma-xilligini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 164-sonli qarorida belgilangan Ugom daryosining Toshkent viloyati hududidan oqib o‘tuvchi **13,3 km** qismi **1-ilovaga** muvofiq, **“Davlat gidrologik tabiat yodgorligi”** deb e’lon qilinsin.

3. Viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov Ekologiya qo‘mitasi bilan birgalikda:

2026-yil 1-oktabrga qadar daryoning tabiiy gidrologik va ekologik holatini kompleks o‘rganish, suv resurslari va bioxilma-xillikni muhofaza qilish, gidrotexnik inshootlar faoliyatining ekologik xavfini kamaytirish hamda sohil bo‘yi hududlarida ekologik muhitni barqaror rivojlantirishni nazarda tutuvchi Ugom daryosi ekotizimini yaxshilash bo‘yicha master rejasini tasdiqlasin;

O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daryoning sohil bo‘yi va muhofaza zonalaridagi erlar degradatsiyasining oldini olish maqsadida daraxt va butalar ekish tadbirlarini olib borsin;

qaror ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Xalq deputatlari viloyat Kengashiga ma’lumotlar kiritib borsin.

4. Viloyat ekologiya va iqlim o‘zgarishi bosh boshqarmasi (J.Abdusalomov) hamda Burchmulla davlat o‘rmon xo‘jaligi (A.Turabbayev):

Ugom daryosini 13,3 km qismi “Davlat gidrologik tabiat yodgorligi” deb e’lon qilinganligi munosabati bilan tegishli amaliy choralarni ko‘rsin hamda belgilangan muhofaza rejimiga rioya etilishi yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

5. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi G‘.Sheraliyev, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Toshkent viloyati teleradiokanali” davlat muassasasi direktori O.Begaliyev:

Ugom daryosini “Davlat gidrologik tabiat yodgorligi” deb e’lon qilishni ommaviy axborot vositalarida hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga yoritilishini ta’minlasin.

6. Qarorning ijrosini ta’minlashga mas’ul etib, viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov belgilansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi A.Xudayberganov zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **FAYZIYEVA SAYYORA MAVLYANOVNA**

Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining
2026-yil 20-iyuldagi
VII-38-91-10-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Ugom daryosi davlat gidrologik tabiat yodgorligi chegaralari

T/r	**Daryo nomi**	**Yuqori va quyi koordinatalari**	
		boshlanishi	*tugashi*
1.	Ugom daryosi	41.724357° 69.921841°	41.630631° 69.947026°